

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
**XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING "SHIRIN QOVUNLAR
MAMLAKATI" ROMANIDA FANTASTIK OLAM TASVIRI**

M.Tursunova

NamDCHTI tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Shirin qovunlar mamlakati” romanida fantastik olam tasvirini yaratish jarayonida ertak va afsonalardagi arxetip obrazlar va syujetlardan foydalanishda yozuvchi mahorati ochib berilgan.

Kalit so’zlar: xalq og‘zaki ijodi, ertak, afsona, mif, fantastika, fentezi,folklor elementlar, ertak qahramonlari.

Аннотация: В статье раскрывается мастерство узбекского писателя Худойберди Тохтабоева в использовании архетипических образов и сюжетов из сказок и легенд в процессе создания фантастического образа мира в романе «Страна сладких дынь».

Ключевые слова: фольклор, сказка, легенда, миф, вымысел, фэнтези, элементы фольклора, сказочные герои.

Abstract: The article reveals the skill of the Uzbek writer Khudoyberdi Tokhtaboyev in using archetypal images and plots from fairy tales and legends in the process of creating a fantastic world image in the novel "The Land of Sweet Melons".

Key words: folklore, fairy tale, legend, myth, fiction, fantasy, folklore elements, fairy tale heroes.

Ma’lumki, XX asr jahon adabiyotida realistik va modernistik yo‘nalishda yozilgan badiiy asarlar bilan bir qatorda fantastik usulda yozilgan asarlar ham o‘z o‘quvchilarini juda tezkorlik bilan topib bormoqda. Sehrli realizmlarga ega asarlar ham o‘z ichida tur-turlarga bo‘linib, adabiy tanqidchilar tadqiqot manbasiga aylanib ulgurdi. Jumladan, ilmiy fantastika, fentezi, sehrli realizm kabi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yo‘nalishlarda yozilgan badiiy asarlarning poetikasi, klassifikatsiyasi, tipologiyasi, janr xususiyatlari bir qator adabiyotshunoslar e’tiborini tortib kelmoqda.

Umuman olganda, XX-XXI asrlar jahon adabiyotida xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilish ommalashdi. Jeyms Joysning “Uliss”[1] va Jon Apdaykning “Kentavr”[2] romanlarida qadimgi grek mifologiyasi personajlari va syujetlariga o‘xshatma qilingan bo‘lsa, T.Eliotning “Unumsiz yer”[3] lirik asarida muqaddas qadah haqidagi umumevropa afsonasiga murojaat etilgan. Qadim miflar va ertaklar personajlari hamda syujetlaridan foydalanilgan zamonaviy badiiy asarlar shunchalik ko‘PKI, ularni bir boshdan sanab o‘tirishni lozim topmadik.

o‘zbek adabiyotida ham bu an’ana o‘z aksini topdi. Xususan, Xurshid Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif”[4] asarida qadimgi grek mifologiyasi qahramoni Sizif personajining yangicha talqini yaratilgan bo‘lsa, Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat”[5] romanida Odam Ato va Momo Havo afsonaviy obrazlariga murojaat etiladi.

Fantastik asarlarning xalq og‘zaki ijodi va mifologik asoslari masalasini o‘rganayotganda shuni hisobga olish kerakki, mif ham, ertak ham har qanday adabiy janr kabi o‘z taraqqiyotida ko‘p bosqichlarni bosib o‘tadi. V.M.Pivoyevning ta’kidlashicha, “mif o‘z rivojlanish yo‘lida mif yaratish subyekti tomonidan uning mazmunini anglash va ratsionalizatsiya qilishning turli darajalari bilan tavsiflanuvchi bir necha bosqichlarni bosib o‘tadi”[6, 10-b].

Zamonaviy adabiyotda mif va ertaklarga yuzlanish jarayoni, albatta, fentezi, sehrli realizm uslubida yozilgan asarlarni ham chetlab o‘tmadi. Xususan, tadqiqotga tortilgan Xudoyberdi To‘xtaboevning “Shirin qovunlar mamlakati” asarida ham ana shunday adabiy fenomen mavjud bo‘lib, adib asarni yaratish jarayonida xalq ertaklari motivlariga murojaat etgan.

Xudoyberdi To‘xtaboevning “Shirin qovunlar mamlakatida” romani ertak-roman deb nomlangan bo‘lsada, bizning fikrimizcha, fentezi uslubida yozilgan assadir. Zero, asarda real dunyo bilan bir qatorda unga parallel ravishda fantastik, to‘qima dunyo ham aks ettiriladi. Bu fantastik olamning o‘z fuqarolari, turli ijtimoiy muassasalari, turli o‘quv yurtlari, turfa xil qonunlari mavjud.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Asar boshida bosh qahramon Akramning fantastik olamga tushib qolishi o‘ziga xos tarzda tasvirlangan. U eshagini davolash maqsadida, uning belidagi yaraga yong‘oq mag‘zini ezib, dori sifatida qo‘yadi. Keyin qarasa, eshagining belidan ulkan yong‘oq daraxti o‘sib chiqib, bo‘yi osmonu falakka etadi:

“Eshagimning ustidan katta bir yong‘oq o‘sib chiqibdi. Yana-tag‘in shig‘il hosil turibdi deng”.[7, 38 b]

Agar e’tibor bersangiz, bu syujet ingliz xalq ertaklarida ham mavjud bo‘lib, “Jek va loviya poyasi” nomli ertakda ham ulkan loviya poyasining bir zumda o‘sib, bo‘yi osmon qadar ko‘tarilgani guvohi bo‘lamiz. Bundan tashqari bu syujet liniyasi o‘zbek xalq ertagida ham uchraydi. Zero, asar muallifi X.To‘xtaboevning o‘zi ham mazkur syujetni o‘zbek xalq ertagidan olganini tasdiqlaydi.[8]

Zamonaviy fentezi mualliflari, ko‘pincha, xalq miflari, rivoyatlari va ertaklaridan ilhomlanib, o‘z asarlariga folklor unsurlarini kiritadilar. Bu ularga o‘quvchilarga tanish va shu bilan birga sirli bo‘lishi mumkin bo‘lgan boy hamda maftunkor dunyolarni yaratish imkonini beradi. Zero, folklor motivlari zamonaviy fenteziga teranlik va haqqoniylilik beradi, syujet va personajlarni boyitadi.

Zamonaviy fentezidagi folklor elementlarining yorqin namunalaridan biri ertak va xalq afsonalaridagi mavjudotlardan foydalanishdir. Ajdaholar, dahshatli jodugarlar, sirli elflar va boshqa ertak qahramonlari, ko‘pincha, fentezi romanlarning asosiy figurasiiga aylanadi. Bu personajlar, ko‘pincha, xalq og‘zaki ijodidagi o‘zlariga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlarni saqlab qoladilar, biroq ayrim xolatlarda ular yozuvchilar tomonidan asar syjeti va yaratilgan sehrli dunyoning o‘ziga xos xususiyatlariga mos ravishda qayta talqin qilinishi va o‘zgartirilishi ham mumkin.

X.To‘xtaboev tomonidan mo‘jizaviy daraxt detali asarga bekorga kiritilmagan. Daraxt obrazi barcha xalqlar folklorida milliy dunyoqarashdan kelib chiqib talqin etilishi kuzatiladi.

V.V.Evsukovning yozishicha, "hayot daraxti" dastlabki ummonning had-hududsiz suvlari orasidagi quruqlikda birinchi bo‘lib yuzaga kelganligi va insoniyatning dastlabki ajdodlari ana shu daraxt tagida o‘zining ilk qadamlarini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qo‘yanligi, binobarin, shu daraxt tagida nikohlangan odamdan inson zoti kelib chiqqanligi haqidagi afsona va rivoyatlar keng tarqalgan.[9, 45-b]

Daraxtgta sig‘inish dunyoning, jumladan turkiy va slavyan xalqlarining mifologik tafakkurida muhim o‘rin tutadi. bu xalqlarning etnik-madaniy a’analarida eman, qarag‘ay, qayin, tol, archa va boshqa daraxtlarga e’tiqod qilish, ularni ulug‘lab, muqaddaslik timsoliga aylantirish qadimgi e’tiqodlar tizimi va tarixiy-mifologik ildizlar bilan bog‘liq. Daraxtlarga sig‘inish, ular uchun qurbanlik qilish, niyat orqali istaklarni ro‘yobga chiqarish – bularning barchasi azaliy e’tiqodning namoyonidir. Bu ko‘rinish shakl va uslub jihatidan farq qilsa-da, ba’zi hollarda o‘zining mif-semantikasi [10, 34-b] tufayli bir xil vazifani bajaradi.

Adabiyotda dunyo daraxti - bu jannat markazidagi daraxt haqidagi hikoya, hayotning allegoriyası. Eski Ahd (Ibtido kitobi)da ezgulik va yomonlikni anglash daraxti haqida eslatib o‘tiladi. Uning mevalari, jannat olmalarini iste’mol qilish ta’qiqlangan bo‘lsa-da, u bilan birga o‘sadigan "hayot daraxti" ning mevalarini iste’mol qilish ta’qiqlanmagan. Ezgulik daraxtining mevasini tatib ko‘rgandan so‘ng, axloq va axloqsizlikni anglash, va shu orqali ana shu bilimning kuchi bilan “insoniy boshlanish”ni anglash mumkin edi. Aytishimiz mumkinki, "hayot daraxti" insonning, hayotning va butun dunyoning kelib chiqishi uchun metaforadir.

X.To‘xtaboev asarida folklor arxetipga bir oz o‘zgartirish kiritilgan. U folklordagi eman, qarag‘ay, qayin, tol va yoki archa emas, balki o‘zbek xalqiga, o‘zbek bolalariga yaqindan tanish bo‘lgan yong‘oq daraxtidan foydalanadi. Yong‘oq daraxtining mevasini tatib ko‘rgandan so‘ng, uning ustida ma’lum bir sarguzashtlarni boshdan kechirganidan so‘ng Akrom axloq va axloqsizlikni, to‘g‘rilik va o‘g‘rilikni, halollik va haromni anglash jarayonlarini boshdan kechiradi. U fentezi olami va o‘zining real olamini o‘zaro taqqoslab, haqiqatni anglaydi.

Ingliz xalq ertagi “Jek va loviya poyasi”da ham, “Shirin qovunlar mamlakati”da ham yana bir umumiyl detal mavjud bo‘lib, bu loviya va qovun urug‘laridir. Bu urug‘lar sehrli bo‘lib, juda tez soniyalar ichida o‘sa oladi.

Fentezi yo‘nalishidagi asarlarda parallel fantastik dunyolarga turli xona

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yoki jihozlar ichidan (masalan, “Narniya sultanati”), poezd vokzali platformasidan (masalan, “Xarri Potter”), yoki anabioz (masalan “Avatar”) xolatida o‘tishi mumkin. X.To‘xtaboevning “Shirin qovunlar mamlakatida” esa parallel fantastik olamga uyqu xolatida o‘tiladi. Parallel sehrli dunyoga, shuningdek, tunnel, devor, ko‘zgu orqali ham o‘tish mumkin. Turli asarlarda yozuvchilar bu xolatni turlichalashtirish uchun tasvirlaydilar.

Bosh qahramon “Shirin qovunlar mamlakati”da ertaklarda uchraydigan sehrli predmet – sehrli qalpoqchadan juda unumli foydalanadi. Akromning sehrli qalpoqchasi ham dono maslahatgo‘y, ham sehr vositasi vazifasini o‘taydi.

Ko‘rinmas bo‘lish yo‘llari va usullari haqidagi mulohazalar xalq og‘zaki ijodidan to yozma adabiyotgacha topiladi. Xususan, “Shirin qovunlar mamlakati”, “Sariq devni minib”, “Xarri Potter” romanlarida ham bu masalaga murojaat qilingan. Bu shunday keng tarqalgan syujetki, u deyarli barcha dunyo madaniyatlarida, garchi ozgina farqlar bilan bo‘lsa ham mavjud.

Fenteziga xos yana bir muhim jihat bu mifologik mavzu va motivlardan foydalanishdir. Zamonaqaviy fentezi mualliflari jozibali hikoyalar yaratish uchun, ko‘pincha, turli xalqlarning mifologiyasidan foydalanadilar. Masalan, yunon mifologiyasi, skandinaviya dostonlari va kelt afsonalari fentezidagi sarguzashtlar va syujetlar uchun asos bo‘lishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarga turli madaniyatlar haqida ma’lumot olish va qiziqarli fentezi olamiga sho‘ng‘ish imkonini beradi.

Aslida, ko‘rinmas qalpoq g‘oyasi ming yillar oldin qadimgi yunon mifologiyasida paydo bo‘lgan. Keyin u Aidga tegishli sehrli narsalardan biri sifatida paydo bo‘ldi. Keyinchalik u Perseyning Meduza bilan jangi haqidagi afsonada ham paydo bo‘ldi. Umuman olganda, bu mavzu ko‘p miflarda tez-tez uchraydi. Keyinchalik, adabiyotshunos olimlarning fikricha, bu afsona butun dunyoga tarqala boshlagan, turli mifologiyalarda namoyon bo‘lib, ularning ajralmas qismiga aylangan.

Yozuvchi o‘z qahramonini o‘ziga xos fantastik yo‘ldan olib o‘tadi. Akram katta tarvuzning ichiga sho‘ng‘ib ketdi-yu, uning ichida yashayotgan, o‘ziga xos yashash tarziga ega bo‘lgan odamlarni kashf etdi. Uning hayoti ikki qismiga – real

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

va fantastik dunyoga ajraladi: biri Soyboshi qishloqda o'tkazgan kunlari, jamoa xo'jaligida ishlagan paytlari bo'lsa, ikkinchisi afsonaviy yurtdagi hayoti, ulug' olim bo'lishi, ulamolar qatoridan o'rinni olishidir.

Yangi olam va sarguzashtlarni yaratishga qaratilgan janrni ifodalovchi zamonaviy fentezi folkloridan o'ziga boy manba topadi. Folklor unsurlaridan foydalanish mualliflarga o'z asarlarini boyitish imkonini beradi, ularni kitobxonlar uchun yanada qiziqarli va hayajonli qiladi. Folklor fentezi olamiga haqiqiylikni qo'shadi va insoniyatni doimo hayratda qoldirgan afsona merosi bilan aloqani saqlashga yordam beradi.

Zamonaviy fentezida folklor elementlaridan foydalanishning yana bir muhim jihat shundaki, u yozuvchilarga noyob va rang-barang olamlarni yaratish imkonini beradi. folklor afsona va ertaklari badiiy dunyoda turli madaniyatlar, dinlar va urf-odatlarning shakllanishi uchun boy material beradi. bu hikoyaga rang-baranglik qo'shish va qiziqarli to'qnashuvlarni yaratishga yordam beradi, shu bilan birga folklor ob'ektivi orqali inson tabiatini va madaniy qadriyatlarining turli tomonlarini o'rganishga imkon beradi.

Yana bir muhim jihat esa axloqiy-madaniy saboqlarni etkazishda xalq og'zaki ijodi motivlaridan foydalanishdir. Ko'pgina xalq ertak va rivoyatlarida yaxshilik va yomonlik,adolat va qasos, sadoqat va xiyonat haqida chuqur saboqlar mavjud. Zamonaviy fentezi mualliflari ushbu saboqlarni qayta ko'rib chiqishlari va qayta tasavvur qilishlari va ularni o'zlarining qahramonlari va syujetlarida qo'llashlari mumkin. bu o'quvchilarga muhim hayotiy qadriyatlar va axloqiy dilemmalar haqida fikr yuritish imkonini beradi.

“Shirin qovunlar mamlakati”dagi iblisning tug'ilishi, uning insoniyatga ziyoni, umuman iblis obrazining asarga kiritilishi ham ma'lum bir ma'joziy manoga egadir.Yozuvchi iblisning kirdikorlari orqali yaxshilik va yomonlikni o'zaro qarama-qarshi qo'yadi va kitobxon bolalarga ahloqdan, odamiylikdan saboq beradi.

Folklor unsurlari zamonaviy fentezida olam, personaj va syujetlarni boyitishda muhim o'rinni tutadi. Ular fentezini nafaqat qiziqarli janrga, balki inson

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tabiat, qadriyatlar va axloqiy saboqlarini o‘rganish vositasiga aylantirib, asarlarga teranlik, haqiqiylik va madaniy meros beradi. Zamonaviylik va folklor o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik zamonaviy fentezini boy va ko‘p qirrali adabiy sohaga aylantiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Xudoyberdi To‘xtaboev zamonaviy davr muammolarini ko‘rsatib berish, ularga yechim topish maqsadida real dunyo bilan parallel ravishda xayoliy – fantastik dunyo yaratadi va ana shu fantastik olamda o‘z qahramonini turli sinovlar va sarguzashtlarga ro‘baro‘ qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Joyce, James. Ulysses. California: Vintage, 1990. – 782 p.
2. Updike, J. John Updike: Novels, 1959–1965: The poorhouse fair; Rabbit, run; The Centaur; Of the farm. New York: Library of America, 2018. – 813 p.
3. Eliot T.S. The Waste Land. – New York: Boni and Liveright, 1922.
4. Хуршид Дўстмуҳаммад. Донишманд Сизиф. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2016. - 359 б.
5. Улугбек Ҳамдам. Исён ва итоат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 140 б.
6. Пивоев В.М. Мифологическое сознание как способ освоения. – Петрозаводск: Карелия, 1991. – 10 с.
7. To‘xtaboyev X. “Shirin qovunlar mamlakatida”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020 - 332 b
8. To‘xtaboyev X. “Shirin qovunlar mamlakatida”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020 - 332 b
9. Евсюков В. В. Мифы о вселенной. – Новосибирск: Наука, 1988. – 177 с. – С.45.
10. Агбаба А. Культ дерева в мифологии тюрksких и славянских народов // East-European Scientific Journal. 2021. № 6 (70). – с. 34.